

tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo'lganida 1 (bir) kalendar oydan oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. Alohida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralarini ko'radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (engib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznom/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (byudjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi – Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgartirgan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (o'n) kalendar kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan (har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi).

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator»	«Abonent»
«Uzbektelekom» AK Farg'ona filiali	<i>Bucaram Cybcnufan TUDYCLLAKRADA</i>
Manzil: 150100 Fargona viloyati Fargona shahar	<i>QAPAYOVA M A Khablova 58 yil</i>
Al-Fargoniy 5	<i>UHA: 209237783 uqro 0539</i>
Tel: 73 229-0010; 73 229-0011	<i>X/P: 100021860304014083620245003</i>
Xr: 2021 0000 3040 7483 8418	<i>Xr: 400121860304014083620245001</i>
Aloqabank ATB	Bank nomi: <i>Tovariyeri Qapayova Samir...</i>
MFO: 00401 STIR: 203 366 731	MFO: <i>00014</i> STIR: <i>201122919</i>
OKED: 61100	OKED: <i>98500</i> X/P: <i>23402000360100001010</i>
Call markaz 1155	Telefon raqami: <i>73-226-35-01</i>
E'l Pochta: feritel@uztelecom.uz	Tel: <i>154.199906</i>
Direktor <i>[Signature]</i> V.V.Yejkov	<i>[Stamp]</i> Pochta <i>[Signature]</i>
Yuriskonsult <i>[Signature]</i> R.Xamidov	<i>[Stamp]</i> <i>[Signature]</i>